

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Abbosova	
Ma'furaviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li	98
Б.А.Абилова	
Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья	102
X.Q.Abdumutalov	
Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....	107
M.M.Gulamova Xoja	
Muhammad Porsoning irfoniy qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..	110
R.Sh.Alisher	
Mirbobo Naqshbandiyni inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari	115
S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova	
Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiy-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi	119
F.S.Qosimov	
Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli.....	124
B.M.Madaminov	
Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari	129
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy roli	133
M.O.Oripova	
Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni	137
Д.Р.Вахабова	
Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки)	142
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili.....	147

SIYOSAT

A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari	152
G.O.Sa'diyeva	
Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar	156
R.A.To'ychiyeva	
Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar	163
D.Mamadjonova	
Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot	172
X.Qodirov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....	176
P.I.Ovulov	
Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi	180

TARIX

B.B.Iminov	
O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi	185
A.U.Hamroyev	
Amir Haydar – ijtimoiy adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....	190
A.U.Hamroyev	
Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi	194
M.M.Azimova	
Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....	198



UO'K: 174.4+334.722(575)

**YANGI O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDA HALOLLIK
VA AXLOQIY QADRIYATLARNING IJTIMOIIY ROLI****РОЛЬ ЧЕСТНОСТИ И ЭТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ****THE SOCIAL ROLE OF INTEGRITY AND ETHICAL VALUES IN THE DEVELOPMENT OF
ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN NEW UZBEKISTAN****Dadaboyev Farhodjon Fozilovich** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Yangi O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda halollik va axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, jamiyatda ishonch va adolatni mustahkamlashda mazkur tamoyillarning ijtimoiy ahamiyati ko'rsatilgan. Shuningdek, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda davlat siyosati va qonunchiligining ahamiyatiga e'tibor qaratilgan.

Аннотация

В условиях Нового Узбекистана анализируется значение честности и этических ценностей для развития предпринимательской деятельности. В частности, показано их социальное значение в укреплении доверия и справедливости в обществе. Также уделено внимание важности государственной политики и законодательства для поддержки предпринимательства.

Abstract

The importance of integrity and ethical values in the development of entrepreneurial activity in the context of New Uzbekistan has been analyzed. Specifically, the social importance of these principles in strengthening trust and justice in society has been highlighted. Additionally, the significance of state policy and legislation in supporting entrepreneurship has been emphasized.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, halollik, axloqiy qadriyatlar, Yangi O'zbekiston, ijtimoiy rol, ishonch, adolat.

Ключевые слова: Предпринимательство, честность, этические ценности, Новый Узбекистан, социальная роль, доверие, справедливость

Key words: Entrepreneurship, integrity, ethical values, New Uzbekistan, social role, trust, justice.

KIRISH

Yangi O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda adolat, qonuniylik va shaffoflik asosiy tamoyillar sifatida ilgari surilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "har bir tadbirkorning manfaati davlat himoyasida bo'lishi, halol va mehnatkash kishilar qo'llab-quvvatlanishi lozim" [1]. Bu boradagi qonun hujjatlari va Prezident farmonlari tadbirkorlik muhitini ishonchli va barqaror qilishga xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlik – iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib, unda axloqiy qadriyatlarga amal qilish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki jamiyatda ijtimoiy ishonch va korrupsiyaga qarshi kurashni ham ta'minlaydi.

Maqsad – Yangi O'zbekistonda halollik va axloqiy qadriyatlarga asoslangan tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini ochib berish, bu boradagi normativ-huquqiy hujjatlarning jamiyat va iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilishdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatida halollik va axloqiy qadriyatlarning o'rni bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. Aksariyat ilmiy manbalarda tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy jarayon, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq faoliyat turi sifatida talqin qilinmoqda. Axloqiy tamoyillarga rioya qilish, xususan

halollik, tadbirkorlik muhitining barqarorligi, ishonchliligi va adolatli raqobatning shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Masalan, U.H. Jamshidov o'zining "O'zbekistonda tadbirkorlik va uning huquqiy asoslari" nomli asarida tadbirkorlikni huquqiy va axloqiy me'yorlar asosida olib borish zarurligini asoslab beradi [2.1]. Muallif halollikni nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning kafolati sifatida talqin etadi. Uning fikricha, halol faoliyat yurituvchi tadbirkorlar jamiyatda ishonchli aloqalarni mustahkamlab, fuqarolarning davlat tizimlariga bo'lgan ishonchini oshiradi.

A. Shukurov esa "Axloqiy qadriyatlar va ishonch: tadbirkorlikdagi ijtimoiy aloqalar" asarida halollikning ijtimoiy va madaniy ahamiyatiga urg'u beradi [3]. U axloqiy qadriyatlarga asoslangan tadbirkorlik faoliyatini umumiy ijtimoiy kapitalni kuchaytiruvchi omil sifatida ko'rsatadi. Ayniqsa, jamiyatda o'zaro ishonch muhitining shakllanishi tadbirkorlik faoliyatining davomiyligi va samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Professor S. Zaynabiddinov esa halollik tamoyilining ijtimoiy transformatsiyadagi o'rniga e'tibor qaratadi [4]. Uning ta'kidlashicha, halollikka asoslangan tadbirkorlik jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa huquqiy madaniyatning shakllanishiga, fuqarolik ongining yuksalishiga hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim tadqiqotchi — R.A. Mu'minov, o'z asarlarida tadbirkorlikning axloqiy asoslari haqida fikr yuritgan ekan, bu omilning iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'siri borligini ta'kidlaydi [5]. Uning fikricha, halollik va axloqiy tamoyillarga amal qilgan holda olib borilgan tadbirkorlik faoliyati orqali jamiyatda sog'lom iqtisodiy raqobat, ijtimoiy ishonch va ijtimoiy adolat muhitini shakllantirish mumkin.

Shu boisdan, yuqoridagi tadqiqotlar halollik va axloqiy qadriyatlar asosida olib borilayotgan tadbirkorlik faoliyatining nafaqat iqtisodiy, balki keng ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarda ham muhim ahamiyat kasb etishini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari o'rganilgan. Bu tahlilning asosiy maqsadi – Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunlar, davlat qarorlari va prezident farmonlarining mazmunini o'rganish va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini ko'rsatishdir. Bunda halollik va axloqiy qadriyatlar tadbirkorlikda qanday rol o'ynashi alohida yoritilgan. Jumladan O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni – mazkur qonun tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab, uni amalga oshirishda halollik va axloqiy meyorlarning muhimligini ta'minlashga qaratilgan. Bu qonunda tadbirkorlarning huquqlari va majburiyatlari aniq belgilangan bo'lib, unda tadbirkorlikning shaffofligi va halolligini saqlash uchun qator qoidalar keltirilgan[5]. Shuningdek sohaga doir Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir qator farmonlar tadbirkorlik muhitini yaxshilash va uni rivojlantirishda halollik va axloqiy tamoyillarni mustahkamlashga qaratilgan. Masalan, "Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish to'g'risida"[6]gi farmonda tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning huquqlarini himoya qilish va qonunga amal qilishni nazorat qilishga alohida e'tibor qaratilgan tadbirkorlarga ijtimoiy himoyalari adolatli tizimda ish faoliyat olib borishga qaratilganligidan dalolat beradi. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" – ushbu davlat dasturi mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ko'zda tutadi. Unda tadbirkorlikni rivojlantirish va uning asosida halollikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilangan[7]. Yangi strategiya davlat boshqaruvining barcha sohalarida, jumladan tadbirkorlikda ham axloqiy qadriyatlarining ustuvorligini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Mazkur qonunlar va farmonlar tadbirkorlik muhitini yaxshilash, jamiyatda ishonchli va halol munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan. Ular orqali tadbirkorlar davlatning ishonchli qo'llab-quvvatlashini his qilishadi va o'z faoliyatlarini adolatli va halollikka asoslangan holda olib borishga harakat qilishadi. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida ham Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Ishonchli muhitni ta'minlashning asosiy omili halollik va shaffoflikdir" [8.1].

Professor S. Zaynabiddinovning tadqiqotlarida halollikning tadbirkorlikdagi ijtimoiy ahamiyati ta'kidlangan bo'lib, u davlatning ushbu sohadagi qonunlarini ijobiy baholaydi [9.4]. Shuningdek, R. A. Mu'minovning tadqiqotlari ham bu boradagi qonunchilik hujjatlarining ahamiyatini ko'rsatadi va ularning tadbirkorlik rivojiga ta'sirini tahlil qiladi [10.5].

Ushbu tahlillar orqali O'zbekistondagi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunlar va davlat dasturlari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri to'liq yoritilishi va o'rganishga intildik.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar va davlat farmonlari halol tadbirkorlik muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Prezidentning tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan farmonlari va "Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni natijasida yurtida tadbirkorlik faoliyatida axloqiy meyorlarga amal qilish hamda halollikka asoslangan munosabatlarni mustahkamlash muhimligini ta'kidlaydi [8][9].

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, halollik va axloqiy qadriyatlarni tadbirkorlikning asosiy tamoyili sifatida qo'llash kompaniyalarga quyidagi natijalarni beradi:

- Tadbirkorlikdagi shaffoflik va halollik ishonchli mijozlar bazasini shakllantiradi.
- Qonunlarga muvofiq faoliyat yuritish va axloqiy tamoyillarga amal qilish kompaniyalarga reputatsiyani oshirish imkonini beradi.
- Tadbirkorlikda halollik va axloqiy qadriyatlarga amal qiluvchi kompaniyalar tashqi va ichki investitsiyalar uchun jozibador bo'lib, tashqi sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

Bu tadbirkorlik qolaversa jamiyatning barcha sohalariga mos tusha oladigan quyidagi takliflarni ilgari surmoqdamiz.

1. **Axloqiy kodekslarni joriy qilish** – kompaniyalar o'z ish tartiblariga axloqiy kodekslar kiritishlari lozim, bu esa ularning barcha xodimlariga halollik va axloqiy meyorlarga amal qilish majburiyatini ta'minlaydi.

2. **Axloqiy va huquqiy ta'limni kuchaytirish** – tadbirkorlar va xodimlar uchun halollik va axloqiy qadriyatlar bo'yicha muntazam trening va seminarlar o'tkazish tadbirkorlikda axloqiy muhitni shakllantirishga yordam beradi.

3. **Xalqaro standartlar asosida ish yuritish** – tadbirkorlik faoliyatini xalqaro axloqiy standartlarga moslashtirish kompaniyalarning ishonchliligi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

4. **Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish** – jamoatchilik nazorati va axborot texnologiyalari orqali tadbirkorlik faoliyatining shaffofligini ta'minlash tadbirkorlikni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi.

5. **Ilg'or tajribalarni tatbiq etish** – dunyoning rivojlangan davlatlarida tadbirkorlikda axloqiy qadriyatlarni joriy qilish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish va O'zbekiston sharoitida ularni amaliyotga joriy qilish.

XULOSA

Tadbirkorlik faoliyatida halollik va axloqiy qadriyatlarning rivojlanishi O'zbekistondagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Halollik va axloqiy meyorlar tadbirkorlikni faqat iqtisodiy foyda olish vositasi sifatida emas, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim asosi sifatida ko'rishni ta'minlaydi. Tadbirkorlar o'z faoliyatlarini shar'iy tamoyillarga asoslangan holda olib borganda, ularning ishi nafaqat moddiy jihatdan, balki ma'naviy va ijtimoiy jihatdan ham qo'llab-quvvatlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, halollikka amal qiluvchi tadbirkorlar jamiyatda ishonch muhitini shakllantirib, barqaror iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Axloqiy qadriyatlar, ayniqsa, shar'iy tamoyillar asosida tadbirkorlik qilish, tadbirkorning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlaydi va uning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi. Bu esa tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bir qatorda, umumiy ijtimoiy barqarorlik va hamkorlik muhitini shakllantiradi.

O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar va Prezident farmonlari tadbirkorlarning halol va axloqiy meyorlarga asoslangan faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi ularning ishonchi va nufuzini mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, tadbirkorlikda halollik va axloqiy qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlash, tadbirkorlarning faoliyatini shar'iy va ijtimoiy jihatdan muvofiq tarzda olib borishi, nafaqat ularning muvaffaqiyati, balki butun jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. M. Mirziyoyev, "Yangi O'zbekiston strategiyasi." Toshkent: "O'zbekiston," 2021y.
2. U. H. Jamshidov, "O'zbekistonda tadbirkorlik va uning huquqiy asoslari." Toshkent: Yurist nashriyoti, 2022
3. A. Shukurov, "Axloqiy qadriyatlar va ishonch: tadbirkorlikdagi ijtimoiy aloqalar." Ijtimoiy fanlar jurnali, 2023 y., t. 15(2), b. 45-58.

4. S.Zaynabiddinov, "Tadbirkorlik faoliyati va uning axloqiy asoslari." Falsafa va iqtisodiyot, 2023.
5. Mu'minov, R. A. "Tadbirkorlik va jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarning o'zaro ta'siri." Iqtisodiy tahlil jurnali, 2023 y.
6. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni, 2022 y..
8. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 2021.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni, 2022 y..